

## IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHINING TUTGAN O'RNI

**Shog'ulomova Zilola Saidahmatovna**

*Toshkent imkoniyati cheklangan shaxslar  
uchun ixtisoslashtirilgan 1-son kasb-hunar  
maktabi kasb-hunar ta'limi ustasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining tutgan o'rni va o'quvchilarga beriladigan asosiy e'tibor haqida so'z boradi.*

**Kalit so'z:** *O'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, madaniyat, ma'naviyat, qiziqish.*

Kasb-hunar ta'limi oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu o'quvchi yoshlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishdir. Kasb-hunar ta'limi tizimida kasbga yo'naltirishning o'ziga xos hususiyati shundaki, nazariy bilimlar va kasbiy ta'lim uyg'unlashuvi kasbiy madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda eng avvalo berilayotgan ta'lim-tarbiya tizimiga e'tibor berish lozim. Abu Rayxon Beruniy bilim berish haqida "Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va izchillik asosida tushunarli qilib bilim berish, ilmlarni egallashlari uchun o'quvchida qiziqish uyg'otish, uni harakatga undash lozim", deb ta'kidlaydi. Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino esa imkoniyati cheklangan bolalarga ta'lim-tarbiya berish va kasbga o'rgatishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarurligini ta'kidlab "Bolaga bilim berishda faqat kitobga band qilib quymaslik, yengildan murakkabga o'tish orqali bilim berish, mashqlarning bola imkoniyatiga mos bo'lishi, jamoa bo'lib o'qishga e'tibor berish, o'quvchining qiziqish mayllari va qobiliyatini hisobga olish lozim" – deydi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari alohida o'rin tutadi. Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida shunday ko'rsatma beradi: Nogiron bolalar bilan muomalada ehtiyot bo'lib, bosiqlik bilan muomala qilib, sabr qanoat bilan e'tibor berish, ularga bilim berishda va kasbga o'rgatishda turli usul va shakllardan foydalanish, ularning xotirasi, bilim egallashi, shaxsiy hususiyatini bilish, kasbga qiziqtirish, berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish, topshiriqlarni ularning aqliy darajasiga va imkoniyatiga mos ravishda berish lozimligi haqida alohida ta'kidlab o'tadi. Buyuk olimlarimiz ta'limotidan kelib chiqib, ta'lim-tarbiya berishda va kasbga o'rgatishda ularni zeriktirmaslik, bilim berishda bir xillikdan qochish, mavzularni uzviy va izchil asoslab, qiziqarli tarzda bayon qilish maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ta'lim-tarbiya orqali kasbiy madaniyatini shakllantirishda o'qituvchi ma'naviyati va madaniyati, mahorati, bundan tashqari ota-onalarning mas'uliyati ahamiyatli hisoblanadi.

O'qituvchining umuminsoniy madaniyati va pedagogik mahorati u orqali ta'lim berish jarayonida o'z o'quvchisida shakllanadi.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda kasbiy mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchini mustaqil ravishda yuqori sifat va ish unumini ta'minlovchi ish usullarini tanlay olishi, ishlab chiqarish jarayonidagi turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'zini nazorat qila bilish va boshqarish qobiliyatini shakllantirib borish muximdir.

Kasbiy madaniyatni shakllantirishda esa, o'quvchining mehnat faoliyatini rejalashtira olishi, mehnatda eng maqbul usullar, texnika va texnologiyalarni qo'llay olishi, mehnatni muhofa qilish qoidalariga rioya qilish qobiliyatini hamda mehnat jarayoni, vositalari, usullarini takomillashtirish, tashkillashtirish va samaradorligini oshirishga ijodiy yondashish, shu bilan birga ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish muximdir.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning rivojlanishi, ularning ruhiy kuch va faoliyatlarining amaliy faoliyatida amalga o'shish darajasi bilan belgilanadi. O'quvchilarning kasbiy madaniy rivojlanishi - bu ularning bilim, ishonch, qobiliyat va xulqining rivojlanish jarayonidir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan jihatlar o'quvchilarning kasbiy madaniyatining shakllanishiga asos bo'ladi va ularning kelajakda kasbiy faoliyat doirasida bilimli, o'z ishining mohiyatini tushunadigan, tizimli yondasha oladigan va kasbiy madaniyatli bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.X.Maqsudova "Barkamol insonni shakllantirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'rni va roli".
2. N.Mansurova "Talaba yoshlarni islom madaniyati va ma'naviyati asosida tarbiyalash".